# O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARIDA YUMSHOQ KUCH STRATEGIYALARI.

**Murtazayeva Shodiya**
**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**
**Xalqaro munosabatlar fakulteti magistranti**

**Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekiston va Turkiyanining so‘ngi yillardaki o‘zaro madaniy, siyosiy hamda iqtisodiy hamkorligi hamda ikki davlat munosabatlariga yumshoq kuchning o‘zaro ta‘siri va istiqbollariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar tufayli olib borilayotgan islohotlar yoritilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro munosabatlar, yumshoq kuch, tashqi siyosat, ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot, turizm, hamkorlik, media, investitsiya.

**Annotation**

This article focuses on the recent cultural, political, and economic relations between Uzbekistan and Turkey, as well as the impact of soft power on their cooperation and the prospects of these relations. Additionally, it highlights the reforms being carried out thanks to the friendly ties between the leaders of both countries.

**Key words:** international relations, soft power, foreign policy, education, culture, economy, tourism, cooperation, media, investment.

**Kirish**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasida shakllangan illiq do‘stlik aloqalari, ayniqsa, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Recep Tayyip Erdoğanning siyosiy irodasi va strategik qarashlari natijasida har tomonlama rivojlanmoqda. Ushbu munosabatlar ikki davlatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda chuqur hamkorligini ta’minlab, yangi

imkoniyatlar va istiqbollarni ochib berdi. Albatta yumshoq kuch konsepsiyasi ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi, chunki O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi yaqinlashuv faqat iqtisodiy va siyosiy hamkorlik bilan cheklanib qolmay, madaniy almashuv va insoniy munosabatlar orqali ham mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston va Turkiya xalqlari orasidagi tarixiy aloqalar, umumiy an’analar va qadriyatlar, ayniqsa, o‘zaro madaniy tadbirlar, ta’lim loyihalari sezilari darajada kuchayib bormoqda. Bu esa ikki davlatning xalqaro maydonda o‘z imidjini yaxshilashga va o‘zaro strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

**Yumshoq kuch tushunchasi**

Yumshoq kuch tushunchasini ilk bor siyosatda Amerikalik olim Joseph Nye tomonidan o‘zining “Yumshoq Kuch” kitobida batafsil keltirib o‘tgan. Yumshoq kuch bu majburlash yoki to‘lovlar evaziga emas balki jalb qilish va ishontirish orqali mamlakatlar o‘zlari xohlagan natijalarga erishish uchun boshqalarga ta’sir qila olish qobilyatidir degan. Yumshoq kuch nafaqat davlatlar balki xalqaro tashkilotlar o‘rtasida ham o‘zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun keng tarzda qo‘llanishi mumkin.[71] Albatta yumshoq kuchlar orqali mamlakatlar madaniy aloqalarini yanada rivojlantirganda nafaqat ularning siyosatiga balki iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir qilmasdan qolmaydi. Shuning uchun yumshoq kuch asosan davlatning madaniy salohiyati, xalqaro ta’lim imkoniyatlari va diplomatik vositilari orqali boshqa davlatlarga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida qaraladi. Xususan O‘zbekiston va Turkiyaning ta’lim, madaniyat hamda yoshlar o‘rtasidagi talabalar almashinuv dasturlari hamda Turkiyaning ilg‘or universitetlarining O‘zbekistonda o‘z filialarini ochishi ham aynan yumshoq kuchga misol bo‘la oladi. Misol uchun 2020 yil 17 iyunda Tadbirkorlik sohasida umume’tirof etilgan xalqaro talab va ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil fevral oyida Turkiya Respublikasiga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan Turkiya iqtisodiyot va texnologiya universitetining Toshkent shahrida filialini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori qabul qilingan edi.[72] Ta’kidlash joizki, mazkur universitetining tashkil etilishi kelgusida yetishib chiqadigan kadrlarning iqtisodiy bilimini amaliy mustahkamlash imkonini beribgina qolmasdan ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro ishonch hamda hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlaydi. [73]

**O‘zbekiston va Turkiyaning o‘zaro yumshoq kuch strategiyalari**

Turkiya O‘zbekiston yoshlariga ta’lim imkoniyatlari orqali o‘z madaniyati, tili va qadryatlarini targ‘ib qilmoqda. Masalan, Turkiya Burslari orqali minglab o‘zbekistonlik yoshlar Turkiyada sifatli ta’lim olish imkoniga ega bo‘lmoqda.Turkiya burslari haqida qisqacha aytadigan bo‘lsak: bu Turkiya Respublikasi tomonidan xalqaro talabalar uchun davlat tomonidan ajratiladigan grant dasturi hisoblanadi. Grantning asosiy maqsadlaridan biri albatta Turkiyaning yumshoq kuch ta’sirini oshirish maqsadida dunyo bo‘ylab muvaffaqiyatli talabalarga teng imkoniyat yaratish va ularning xalqaro standartlar asosida ta’lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Stipendiyani qo‘lga kiritgan talabalar, Turkiyaning eng nufuzli universitetlardan birida

[71] Салиева, Н. Э. (2022). СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ИДЕОСФЕРЫ В РАМКАХ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 55-59).

[72] САЛИЕВА, Н. Э. (2022). СПЕЦИФИКА ПАРАДИГМАЛЬНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАТИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА НА ИДЕОСФЕРУ МОЛОДЕЖИ. ВОПРОСЫ ПОЛИТОЛОГИИ Учредители: ООО" Издательство" Наука сегодня", 12(9), 2887-2894.

bepul ta’lim olishi bundan tashqari oylik stipendiya, tibbiy sug‘urta, turar joy, turk tili kursi, aviachipta va bepul akademik hamda madaniy dastur imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin.[74] Malumotlarga ko’ra 2023 yilda 162 davlatdan 117 ming nomzod «Türkiye Bursları» uchun hujjat topshirgan. Hozirga qadar mazkur grant doirasida dunyo bo‘ylab 150 mingdan ziyod talaba Turkiyada tahsil olgan. [75] Albatta bu nomzodlar orasida o‘zbek yoshlari ham bor ular Turkiyaning nufuzli universitetlarida ta’lim olib O’zbekiston va Turkiya munosabatlarini yanada yaxshilashga xizmat qilishmoqda. Bundan tashqari yumshoq kuch strategiyalarga madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan bir qancha ishlarni ham ta’kidlab o‘tish joizdir. Joriy yilning Fevral oyida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, mamlakatimiz elchixonasi hamda Istanbuldagi Bosh konsullik hamkorligida Turkiyaning Bursa shahrida O‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi. Uludag‘ universiteti rektori Ferudun Yilmaz bu markaz ochilishi universitet talabalari uchun yangi imkoniyatlar deya baholab O‘zbekiston tarixi, madaniyati hamda o‘zbek tili va adabiyotini targ‘ib qiladigan maskan bo‘lishiga ishonchi komilligini ta’kidlab o‘tdi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston tomonidan berilgan adabiyotlar va hunarmandchilik ashyolari universitet talabalari uchun muhim ahamiyatga egan ekanligini aytib o‘tdi. Shuni ta’kidlash joizki O‘zbekistonda ham Turkiyaning madaniyat markazi mavjud bolib markazning asosiy maqsadlaridan biri ikki mamlakat o‘rtasidagi ilmiy va madaniy almashinuvni rivojlantirish, yoshlar va talabalarga ko‘mak berish hamda turk tili kurslari va madaniy dasturlarni amalga oshirishdan iboratdir. Ikki davlat o‘rtasidagi samimiy munosobatlarning davomi sifatida 2024-yil Mart oyida Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) tomonidan O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy axborot vositalari universiteti qoshida telestudiya tashkil etildi. TIKA prezidenti Serkan Kayalar bu media markaz ochilishi hamkorligimizni timsoli deya ta’riflab ushbu zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan studiya mashg‘ulot maydoni vazifasini o‘tashini hamda televideniya va internet orqali jonli efirga chiqish imkoniyatini berishini ham ta‘kidlab o’tdi. Shu bila bir qatorda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya sohasida xalqaro standartlar darajasida ekspert media kadrlar salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shishiga alohida urg‘u berdi.

**O‘zbekiston va Turkiya Munosabatlarining Istiqbollari**

Yumshoq kuch orqali Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar chuqurlashib, bu ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Natijalar shuni ko‘rsatadiki qachon ikki davlat o‘rtasida yumshoq kuchlar qaysiki ta’lim, turizm, va madaniy almashinuvlar amalga oshsa natijada ular o‘rtasida o‘zaro ishonch ham kuchayadi. Agarda ishonch kuchaysa demak iqtisodiy hamkorlikka ham o’z ta’sirni ko‘rsatmasdan qolmaydi. Misol uchun oxirgi yillarda O‘zbekistonda turk kompaniyalarining soni tobora oshib borib bu esa mamlakatimizda investitsiyalar oqimini kuchaytirishga sabab bo‘lmoqda. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (ISSV) ma’lumotiga ko‘ra so‘nggi besh yilda ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,3 barobar, O‘zbekistonda turk kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 3 barobarga oshib, 1898 taga, Turkiyadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 10 barobar oshgani hamda 2023 yil davomida 260 ta yangi o‘zbek-turk qo‘shma korxonalari tashkil etilganini va bu esa Turkiyani O‘zbekistondagi qo‘shma korxonalar soni bo‘yicha boshqa hamkorlar orasida uchinchi o‘ringa olib chiqganini ma‘lum qildi. [76] Bundan tashqari Turkiyaning O‘zbekistonga gumanitar yordamlarini ham biz uning o‘zaro do‘stona aloqalarning hamda yumshoq kuchning ta’siri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Misol uchun 2018-yil 24-sentabr kuni rasmiy tashrif bilan Turkiya Buyuk Millat Majlisi spikeri Binali Yildirim boshchiligidagi delegatsiya O‘zbekistonga tashrif buyurganda o‘zaro munosabatlarni yuksak qadrlashini, Shavkat Mirziyoyev hukumat tepasiga kelgandan so‘ng O‘zbekiston tashqi siyosatida hamda Turkiya bilan

[12] https://daryo.uz

munosabatlarida yangicha ko‘rinish olganini e’tirof etdi. O‘zbekiston bilan aloqalarimizni tarixda bo‘lgan kabi yanada eng yuqori saviyaga chiqaramiz bu bizning oliy maqsadimiz chunki O‘zbekiston bu ilm o‘chog‘ining zaminidir deya so‘zini yakunlab tadbir so‘ngida Turkiya Respublikasi nomidan O‘zbekistonga 50 dona tez yordam mashinasi va 20 dona mobil ofis avtobusi taqdim etdi.[77] O‘zbekiston va Turkiyaning hamkorligidan yana bir namuna sifatida ikki mamlakatning Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo ekanligi hamda tashkilot doirasida olib borilayotgan madaniy, siyosiy va iqtisodiy loyihalarda eng faol davlatlar desak adashmagan bo‘lamiz. 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining yettinchi sammiti bo‘lganda O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida O’zbekistonning tashkilotga a’zo bo‘lishi, hech shubhasiz, tabiiy va tarixiy jarayonlar ifodasi ekanini ta’kidladi. Rasmiy shaxslar, ekspertlar xalqimizning turkiylar tarixidagi o‘rnini e’tirof etib, tashkilotga to‘laqonli qo‘shilishini mamnuniyat bilan qabul qilishdi.[78] Albatta bu a’zolik Turkiya va O’zbekistonning munosabatlarini mustahkamlashga qardoshlik rishatalarini yanada kengayishiga sabab bo‘lmoqda..

**Xulosa**

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi yumshoq kuch strategiyalari madaniy va siyosiy aloqalarni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Turkiya grant dasturlari orqali O‘zbekiston yoshlari uchun ta’lim olish imkoniyatlari yaratilishi, Bursa shahrida O‘zbekiston madaniyat markazining ochilishi, va TIKA tomonidan O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy axborot vositalari universiteti qoshida media markazining tashkil qilinishi hamda Turkiya iqtisodiyot va texnologiya universitetining Toshkent shahrida filiali ochilishi ikki davlat o‘rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvning yorqin misollari sanaladi. Bundan tashqari, Turkiya Respublikasi tomonidan O‘zbekistonga yuborilgan tez yordam mashinalari kabi gumanitar yordamlar, ikki davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam bermoqda. Shuningdek, Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik esa ikki mamlakatning qardoshlik va o‘zaro strategik sheriklik rishtalarini mustahkamlamoqda. Turkiya va O‘zbekiston nafaqat tarixiy va madaniy ildizlar bilan bog‘langan, balki zamonaviy siyosiy va iqtisodiy loyihalar orqali o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlikni kuchaytirib bormoqda. Yumshoq kuch siyosati ikki davlat o‘rtasida uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

**References:**


1. Салиева, Н. Э. (2022). Специфические тенденции формирования молодежной идеосферы в рамках политической системы. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 55-59).
2. САЛИЕВА, Н. Э. (2022). Специфика парадигмального подхода к изучению влияния информатизированного общества на идеосферу молодежи. Вопросы политологии Учредители: ООО" Издательство" Наука сегодня", 12(9), 2887-2894.
3. Saliyeva, N. (2021). The role of raising the political culture of youth in the development of civil society in Uzbekistan. In общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история (pp. 59-62).
4. Надирова, Х. (2020). ASPECTS OF CLASSROOM METHODS. *Общество и инновации*, *1*(1/s), 269-271.
5. Nye, J. S. (2019). Soft power and public diplomacy revisited. *The Hague Journal of Diplomacy*, *14*(1-2), 7-20.
6. https://lex.uz/docs/
7. www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/
8. www.turkiyeburslari.gov.tr


[13] https://kun.uz/

[14] https://president.uz